



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i06.061>

GITLER AGRESSIYASI VA CHEXOSLOVAKIYA INQIROZI: IKKINCHI JAHON URUSHI ARAFASIDA YEVROPADAGI GEOSIYOSIY TIZIMNING TRANSFORMATSIYASI

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti
G‘iyosiddinov Hojiahror Mirhojiddin o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
Turdialiyeva Muazzamxon Rustam qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1938–1939-yillarda Yevropada yuz bergan geosiyosiy o‘zgarishlar, xususan, Gitlerning agressiv tashqi siyosati, Myunxen bitimining mazmuni va oqibatlari, Chexoslovakiya davlatining parchalanishi hamda Buyuk Britaniya va Fransiyaning “yumshatish siyosati” tahlil qilinadi. Shuningdek, 1939-yil mart voqealari, Praganing Germaniya tomonidan egallanishi, Slovakiya mustaqilligining e‘lon qilinishi, Polshaga berilgan ingliz-fransuz kafolatlari va mazkur jarayonlarning Ikkinchi jahon urushining boshlanishiga olib kelgan omillar sifatidagi o‘rni yoritiladi. Maqolada Chexoslovakiya inqirozining xalqaro munosabatlar tizimiga ta‘siri, G‘arb diplomatiyasining zaiflashuvi hamda Yevropadagi kuchlar muvozanatining izdan chiqishi tarixiy manbalar va tarixshunoslikdagi yondashuvlar asosida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Gitler agressiyasi, Chexoslovakiya inqirozi, Myunxen bitimi, yumshatish siyosati, Nevill Chamberlen, Polsha kafolati, Bogemiya va Moraviya protektorati, Ikkinchi jahon urushi, Yevropa diplomatiyasi

Anotation. This article examines the geopolitical transformations in Europe during 1938–1939, focusing on Hitler’s aggressive foreign policy, the content and consequences of the Munich Agreement, the disintegration of Czechoslovakia, and the appeasement policy pursued by Britain and France. Particular attention is paid to the events of March 1939, including the occupation of Prague, the proclamation of Slovak independence, the Anglo-French guarantees to Poland, and the role of these developments as factors leading to the outbreak of the Second World War. Drawing on historical sources and historiographical approaches, the article analyzes the impact of the Czechoslovak crisis on the international system and the changing balance of power in Europe.

Keywords: Hitler’s aggression, Czechoslovak crisis, Munich Agreement, appeasement policy, Neville Chamberlain, guarantee to Poland, Protectorate of Bohemia and Moravia, Second World War.

Аннотация. В данной статье анализируются геополитические изменения в Европе в 1938–1939 гг., агрессивная внешняя политика Гитлера, сущность и последствия Мюнхенского соглашения, распад Чехословакии, а также политика умиротворения, проводимая Великобританией и Францией. Особое внимание уделяется мартовским событиям 1939 года, оккупации Праги, провозглашению независимости Словакии, англо-французским гарантиям Польше и роли этих процессов как факторов, приведших к началу Второй мировой войны. На основе исторических источников и историографических подходов в статье раскрывается влияние чехословацкого кризиса на систему международных отношений и изменение баланса сил в Европе.

Ключевые слова: агрессия Гитлера, чехословацкий кризис, Мюнхенское соглашение, политика умиротворения, Невилл Чемберлен, гарантии Польше, протекторат Богемии и Моравии, Вторая мировая война.

Kirish. XX asrning 30-yillari oxiriga kelib Yevropadagi xalqaro siyosiy vaziyat nihoyatda keskinlashdi. Birinchi jahon urushidan keyin shakllangan Versal–Vashington tizimi tobora zaiflashib, revizionistik davlatlar, ayniqsa Germaniya, o‘zining yangi geosiyosiy maqsadlarini ochiq namoyon eta boshladi. Adolf Gitler boshchiligidagi natsistlar rejimi Germaniyaning hududiy kengayishi, Markaziy va Sharqiy Yevropada siyosiy-strategik ustunlikni qo‘lga kiritish hamda urushdan keyingi tartibni o‘zgartirishni tashqi siyosatining bosh maqsadi qilib oldi [1]. Bu siyosat dastlab Reyn viloyatining remilitarizatsiyasi, keyin Avstriyaning Anschluss yo‘li bilan Germaniyaga qo‘shib olinishi, undan so‘ng esa Chexoslovakiya hududiga nisbatan da‘volar shaklida namoyon bo‘ldi [2]. Aynan Chexoslovakiya inqirozi Gitler agressiyasining navbatdagi bosqichi bo‘lib, Ikkinchi jahon urushi arafasidagi geosiyosiy vaziyatni tubdan o‘zgartirib yubordi.

Chexoslovakiya Markaziy Yevropadagi eng muhim sanoat davlatlaridan biri bo‘lib, uning geostrategik o‘rni Germaniya, Polsha, Avstriya va Vengriya bilan tutash hududlarda joylashgani sababli alohida ahamiyatga ega edi [3]. Ayniqsa, mamlakat tarkibidagi Sudet viloyatida ko‘p sonli nemis aholisining mavjudligi Gitler uchun qulay siyosiy bahona vazifasini o‘tadi. Berlin bu masalani “nemis millatini birlashtirish” va “etnik nemislar huquqlarini himoya qilish” shiori ostida ko‘targan bo‘lsa-da, uning asl maqsadi Chexoslovakiyani xalqaro maydonda yakka lash, ichki jihatdan zaiflashtirish va keyinchalik butunlay bo‘ysundirishdan iborat edi [4]. 1938-yil bahoridan boshlab Sudet nemislari masalasi Germaniya diplomatiyasi tomonidan ataylab keskinlashtirildi. Konrad Henlein boshchiligidagi sudet nemis siyosiy kuchlari Berlinning bevosita ko‘rsatmalari asosida Pragaga bosim o‘tkaza boshladilar [5]. Bu jarayon Gitlerning Chexoslovakiya ichki siyosiy hayotiga aralashishiga, mamlakatda beqarorlikni kuchaytirishiga

va uni xalqaro maydonda himoyasiz qoldirishiga xizmat qildi. Sudet viloyati masalasi shu tariqa faqat milliy ozchiliklar muammosi emas, balki Germaniyaning Markaziy Yevropadagi geosiyosiy ekspansiyasi uchun vositaga aylandi.

1938-yil sentabr oyida Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya ishtirokida Myunxen bitimi imzolandi. Mazkur bitimga ko‘ra, Sudet viloyati Germaniyaga berildi, biroq muzokaralarda Chexoslovakiyaning o‘zi ishtirok etmadi [6]. Buyuk Britaniya bosh vaziri Nevill Chamberlen va Fransiya siyosiy doiralari Gitlerni murosalar orqali to‘xtatish mumkin, degan tasavvurga asoslanib, Chexoslovakiya hududiy yaxlitligi evaziga Yevropada tinchlikni saqlab qolishga umid bog‘ladilar [7]. Chamberlen Myunxendan qaytgach, kelishuvni “bizning zamonamiz uchun tinchlik”ning kafolati sifatida talqin qildi [8]. Biroq voqealarning keyingi rivoji bu yondashuvning jiddiy strategik xato ekanini ko‘rsatdi. Myunxen bitimi nafaqat Chexoslovakiya mudofaa tizimini izdan chiqardi, balki Gitlerga G‘arb davlatlarining qat’iyatsizligi va murosaga moyilligini sinab ko‘rish imkonini berdi [9].

Chexoslovakiyaning Sudet hududidan mahrum bo‘lishi uning siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyatiga halokatli zarba bo‘ldi. Aynan shu hududda mamlakatning kuchli chegara mudofaa chizig‘i, ko‘plab sanoat korxonalari va strategik kommunikatsiya tarmoqlari joylashgan edi [10]. Natijada Chexoslovakiya o‘zining tashqi himoya qobiliyatini jiddiy darajada yo‘qotdi, ichki siyosiy barqarorligi ham izdan chiqdi. Myunxen kelishuvidan keyin Polsha Teshin viloyatini egalladi, Vengriya esa Slovakiya va Karpat Rusi hududlariga nisbatan da‘volarini kuchaytirdi [11]. Bu holat Chexoslovakiya davlatini nafaqat Germaniya, balki qo‘shni davlatlar bosimi ostida ham qoldirdi.

1939-yil mart voqealari Chexoslovakiya inqirozining yangi va eng keskin bosqichini boshlab berdi. 14-mart kuni Slovakiya Germaniya bosimi ostida mustaqilligini e‘lon qildi, shu kuni Vengriya qo‘shinlari Karpat Ukrainasi hududiga bostirib kirdi [12]. Oradan ko‘p o‘tmay, Gitler Chexoslovakiya davlatining qolgan qismini ham butunlay bo‘ysundirishga kirishdi. 15-mart kuni nemis qo‘shinlari Pragaga kirib bordi va Bogemiya hamda Moraviya ustidan Germaniya protektorati o‘rnatildi [13]. Bu voqea nihoyatda muhim burilish nuqtasi bo‘ldi, chunki Gitler endi faqat “nemis millatini birlashtirish” bilan cheklanmayotgani, balki mustaqil slavyan davlatlarini ham ochiq bosib olayotgani ayon bo‘ldi [14]. Demak, Myunxen bitimida ilgari surilgan “Germaniyaning so‘nggi hududiy talabi” haqidagi va‘dalar mutlaqo yolg‘on bo‘lib chiqdi.

Praganing bosib olinishi Buyuk Britaniya tashqi siyosatida ham tub burilish yasadi. Chamberlen hukumati avval Chexoslovakiya masalasida murosaga moyil bo‘lgan bo‘lsa, 1939-yil mart voqealaridan so‘ng Gitlerni endi kelishuvlar orqali jilovlab bo‘lmasligi tobora ravshanlashdi [15]. Britaniya parlamentidagi nutqlar, hukumat ichidagi muhokamalar va diplomatik hujjatlar shuni ko‘rsatadiki, Praganing ishg‘ol qilinishi Myunxen siyosatining halokatli oqibatlarini ochiq namoyish etdi [16]. Endilikda masala Gitlerni “tinchlantirish” emas,

balki uning navbatdagi agressiv qadami qayerga qaratilishi va bunga qanday javob berish masalasiga aylandi.

Aynan shu sharoitda Britaniyaning Polshaga nisbatan yangi diplomatik pozitsiyasi shakllandi. 1939-yil 31-mart kuni Nevill Chamberlen Buyuk Britaniya hukumati Polsha mustaqilligiga tahdid soladigan har qanday harakat yuz bersa, Polshaga qo‘lidan kelgan barcha yordamni ko‘rsatishini ma‘lum qildi [17]. Fransiya ham bu kafolatni qo‘llab-quvvatladi. Mazkur bayonot G‘arb diplomatiyasida jiddiy buriilish bo‘lib, Gitlarning navbatdagi ehtimoliy nishoni Polsha ekanini anglash bilan bog‘liq edi [18]. Agar Myunxen bitimi davrida G‘arb davlatlari Germaniyaning talablariga yon berish orqali urushning oldini olishga umid qilgan bo‘lsalar, endi ular hech bo‘lmasa siyosiy ogohlantirish va potensial to‘xtatish mexanizmini yaratishga urindilar [19]. Shunga qaramay, tarixshunoslikda Polsha kafolati turlicha talqin qilinadi: ayrim tadqiqotchilar uni zarur, biroq kechikkan choralar sifatida baholasa, boshqalar uni real harbiy tayyorgarlik bilan yetarlicha ta‘minlanmagan siyosiy qadam deb hisoblaydilar [20].

Chexoslovakiya masalasining yana bir muhim tomoni shundaki, uning bosib olinishi Germaniya uchun ulkan harbiy-iqtisodiy foyda keltirdi. Bogemiya va Moraviya hududlarining Germaniya nazoratiga o‘tishi natsistlar qo‘liga rivojlangan sanoat korxonalari, qurol-yarog‘ ishlab chiqarish bazasi va strategik resurslarni berdi [21]. Xususan, Škoda kabi yirik harbiy-sanoat korxonalarining Germaniya nazoratiga o‘tishi natsistlar harbiy mashinasining salohiyatini yanada kuchaytirdi [22]. Shu ma‘noda, Chexoslovakiyaning ishg‘ol qilinishi faqat diplomatik yoki siyosiy voqea emas, balki Germaniyaning keyingi harbiy yurishlari uchun moddiy-texnik poydevor yaratgan strategik bosqich ham edi.

Chexoslovakiya inqirozi Yevropadagi kuchlar muvozanatini izdan chiqargan markaziy omillardan biri bo‘ldi. 1938-yilgacha Gitlarning maqsadlari ayrim G‘arb siyosatchilari nazarida “cheklangan” ko‘rinishi mumkin edi, biroq 1939-yil mart voqealari uning maqsadi faqat Versal shartnomasini “tuzatish” emas, balki Yevropada Germaniya hukmronligini o‘rnatish ekanini yaqqol ko‘rsatdi [23]. Bu esa xalqaro munosabatlar tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Buyuk Britaniya va Fransiya o‘z tashqi siyosatini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldi; Polsha, Ruminiya va boshqa Sharqiy Yevropa davlatlari tobora ko‘proq geosiyosiy xavf ostida qoldi [24]. Sovet Ittifoqi bilan kollektiv xavfsizlik masalasidagi muzokaralar esa murakkablashib bordi va bu Yevropadagi diplomatik muhitni yanada tanglashtirdi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Chexoslovakiya inqirozi Ikkinchi jahon urushi arafasidagi diplomatik jarayonlarning markaziy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib xizmat qildi. Bir tomondan, Myunxen bitimi G‘arb davlatlarining zaifligini va kollektiv xavfsizlik tizimining amalda ishlamay qolganini namoyish etdi.[25] Ikkinchi tomondan, Praganing ishg‘ol qilinishi Gitlarni yanada dadillashtirdi va Polsha masalasini kun tartibiga olib chiqdi. 1939-yil bahoridan boshlab Dantsig, “Polsha koridori” va Germaniyaning Sharqiy Yevropadagi strategik rejalari tobora ochiq tus oldi [26]. Natijada Yevropadagi diplomatik inqiroz bosqichma-bosqich global urush sari yo‘l oldi.

Tarixshunoslikda Chamberlen siyosatiga nisbatan baholar bir xil emas. An’anaviy yondashuvlarda u ko‘pincha Gitlerni to‘xtata olmagan, hattoki unga qulay imkoniyat yaratib bergan siyosatchi sifatida talqin qilinadi [27]. Boshqa qarashlarga ko‘ra esa, Britaniya 1938-yilda keng ko‘lamli urushga tayyor emas edi va Myunxen orqali vaqt yutish, qurollanishni kuchaytirish hamda ichki tayyorgarlikni oshirishga uringan [28]. Shunga qaramay, 1939-yil mart voqealari Chamberlenning o‘zi uchun ham burilish nuqtasi bo‘ldi. Aynan shundan keyin Britaniya tashqi siyosati keskinroq tus oldi va Polsha mustaqilligini himoya qilish masalasi rasmiy darajada e‘lon qilindi [29].

Umuman olganda, Gitlerning Chexoslovakiyaga nisbatan olib borgan siyosati bir nechta strategik vazifani hal qildi: birinchidan, Markaziy Yevropadagi muhim geosiyosiy hudud Germaniya nazoratiga o‘tdi; ikkinchidan, G‘arb davlatlarining qat’iyatsizligi yana bir bor sinovdan o‘tkazildi va tasdiqlandi; uchinchidan, Germaniya keyingi agressiya uchun qulay harbiy-siyosiy poydevor yaratdi [30]. Chexoslovakiya fojiasi xalqaro huquq, kollektiv xavfsizlik va davlatlar suvereniteti tamoyillarining qanchalik zaif himoya qilinganini ko‘rsatdi. Eng muhimi, u Ikkinchi jahon urushining bevosita arafasida Yevropadagi geosiyosiy vaziyatning qay darajada izdan chiqqanini, “yumshatish siyosati” esa tajovuzkor totalitar rejimni to‘xtatish vositasi bo‘la olmaganini isbotladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 1938–1939-yillardagi Chexoslovakiya inqirozi Ikkinchi jahon urushi arafasidagi Yevropa geosiyosiy tarixining eng muhim burilish nuqtalaridan biri bo‘ldi. Myunxen bitimi Gitler agressiyasini to‘xtatish o‘rniga, uni rag‘batlantirdi va Chexoslovakiyaning siyosiy-hududiy yemirilishiga zamin yaratdi. 1939-yil mart oyida Bogemiya va Moraviyaning bosib olinishi Gitlerning asl maqsadi faqat etnik nemislar yashaydigan hududlarni qo‘shib olish emas, balki Markaziy va Sharqiy Yevropada Germaniya hukmronligini qaror toptirish ekanini yaqqol ko‘rsatdi. Mazkur voqea Buyuk Britaniya va Fransiya siyosatini qayta ko‘rib chiqishga majbur etdi hamda Polshaga berilgan kafolatlar orqali G‘arb diplomatiyasida yangi bosqichni boshlab berdi. Biroq bu kafolatlar urushning oldini ola olmadi. Shunday qilib, Chexoslovakiya fojiasi Gitler agressiyasining tobora kuchayib borayotganini, “yumshatish siyosati”ning tarixiy cheklanganligini va Yevropadagi urushga olib kelgan geosiyosiy inqirozning naqadar chuqur bo‘lganini yaqqol namoyon etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Taylor, A.J.P. The Origins of the Second World War. London: Hamish Hamilton, 1961. №-1B.165-170, №-7B.175-181, №-14B.204-209, №-23B.204-209, № 27-B.210-216.
2. Weinberg, Gerhard L. The Foreign Policy of Hitler’s Germany, 1937–1939: Starting World War II. Chicago: University of Chicago Press, 1980. №-4B.515-519, №-9B.519-528, №-10B.520-524, №-13B. 620-627, №-21B. 620-629, №-26B. 639-650.

3. Overy, Richard. The Road to War. London: Penguin Books, 1999. №-1B. 36-44, №-22B. 63-69, №-30B. 69-74.
4. Steiner, Zara. The Triumph of the Dark: European International History 1933–1939. Oxford: Oxford University Press, 2011. №-16B. 784-790, №-24B. 790-803, №-29B. 808-816.
5. Watt, Donald Cameron. How War Came: The Immediate Origins of the Second World War, 1938–1939. London: Heinemann, 1989. №28B. 17-33.
6. Lukes, Igor. Czechoslovakia Between Stalin and Hitler: The Diplomacy of Edvard Beneš in the 1930s. New York: Oxford University Press, 1996. №-3B. 180-193, №-5B. 193-205, №-11B. 255-263.
7. Heimann, Mary. Czechoslovakia: The State That Failed. New Haven–London: Yale University Press, 2009. №-12B. 247-252.
8. Feiling, Keith. The Life of Neville Chamberlain. London: Macmillan, 1946. №-8B. 386-392, №-15B. 403-410,
9. Prazmowska, Anita J. Britain, Poland and the Eastern Front, 1939. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. №-17B.57-60, №19B.61-70.
10. Rodzik, Marek. “The Origins of the British Guarantee to Poland of 31 March 1939.” *Studia nad Totalitaryzmami i Wiekami XX*, 2020. №-20B.330-339,
11. Encyclopaedia Britannica. “Munich Agreement.”